




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-may)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 465,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 110,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (94,7 %)ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 10,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 37,7 % ga hamda togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 24,4 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 17,6 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-may oylari, % da)**




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	95,0	106,1	11,1




Ishlab chiqaradigan sanoat
Yanvar-may oylarida



2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 068,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,7 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-may oylarida - 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 17,9 % (18,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 14,1 % (11,8 %) va quyi texnologiyalisi - 62,5 % (62,9 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'рта-yuqori texnologiyali



O'рта-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,0 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 34,9 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 161,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,2 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 60,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,8 %)ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, %da


2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,9 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 1,5 martaga o'sgan), 74,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (1,7 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



O'simlik yog'i (tozalangan)



Aroq




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	18,4	21,2	2,8
Aroq – ming litr 100 % spirt	52,9	146,9	94,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	115,4	164,2	48,8
Vino, ming litr	351,3	375,6	24,3
Un, ming tonna	75,4	74,1	-1,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	13,0	18,9	5,9



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-may oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 254,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,6 foizga oshganligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-may oylari, % da)



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	181,2	180,4	-0,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	472,8	3 612,1	3 139,3


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar-may oylari, % da)

2020- yil % da



2021- yil % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	21,9	39,8	17,9
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	4,9	16,5	11,6
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	6,2	10,9	4,7
To'qimachilik chiqindilari, tonna	27,4	22,0	-5,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 81,7 % ga, oqava suvlarni ishlami 3,4 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 75,8 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 605,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 24,2 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 61,7 %ni tashkil etdi.



















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,1 % (2020- yil yanvar-may oylarida 3,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,1 % ni, shuningdek, Urgut tumani 15,6 % ni, Samarqand tumani 12,9 % ni, Toyloq tumani 10,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (124,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi (300,8 %), Qo'shrobot (240,9 %), Toyloq (186,6 %), Kattaqo'rg'on (166,7 %), Narpay (152,3 %) hamda Oqdaryo (140,2 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-may oyida

	<i>Mlrd. so'm</i> 1892,0	<i>Ulushi %da</i> 41,1	<i>O'sishi %da</i> 115,7		<i>Mlrd. so'm</i> 139,6	<i>Ulushi %da</i> 3,0	<i>O'sishi %da</i> 152,3
Samarqand sh.			Narpay				
	<i>Mlrd. so'm</i> 103,5	<i>Ulushi %da</i> 2,2	<i>O'sishi %da</i> 99,4		<i>Mlrd. so'm</i> 49,4	<i>Ulushi %da</i> 1,1	<i>O'sishi %da</i> 75,3
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq				
	<i>Mlrd. so'm</i> 67,1	<i>Ulushi %da</i> 1,5	<i>O'sishi %da</i> 140,2		<i>Mlrd. so'm</i> 112,9	<i>Ulushi %da</i> 2,5	<i>O'sishi %da</i> 102,9
Oqdaryo			Pastdarg'om				
	<i>Mlrd. so'm</i> 90,2	<i>Ulushi %da</i> 2,0	<i>O'sishi %da</i> 115,2		<i>Mlrd. so'm</i> 93,5	<i>Ulushi %da</i> 2,0	<i>O'sishi %da</i> 300,8
Bulung'ur			Paxtachi				
	<i>Mlrd. so'm</i> 253,0	<i>Ulushi %da</i> 5,5	<i>O'sishi %da</i> 102,0		<i>Mlrd. so'm</i> 471,6	<i>Ulushi %da</i> 10,2	<i>O'sishi %da</i> 130,2
Jomboy			Samarqand				
	<i>Mlrd. so'm</i> 99,7	<i>Ulushi %da</i> 2,2	<i>O'sishi %da</i> 102,9		<i>Mlrd. so'm</i> 65,9	<i>Ulushi %da</i> 1,4	<i>O'sishi %da</i> 113,1
Ishtixon			Nurobod				
	<i>Mlrd. so'm</i> 178,6	<i>Ulushi %da</i> 3,9	<i>O'sishi %da</i> 166,7		<i>Mlrd. so'm</i> 570,5	<i>Ulushi %da</i> 12,4	<i>O'sishi %da</i> 126,7
Kattaqo'rg'on			Urgut				
	<i>Mlrd. so'm</i> 23,3	<i>Ulushi %da</i> 0,5	<i>O'sishi %da</i> 240,9		<i>Mlrd. so'm</i> 394,9	<i>Ulushi %da</i> 8,6	<i>O'sishi %da</i> 186,6
Qo'shrabot			Toyloq				

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (363,8 %), Paxtachi (261,0 %), Toyloq (228,1 %), Samarqand (159,9 %) hamda Oqdaryo (158,4 %) tumanlarida qayd etildi.


















**Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-may oylarida**

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	1166,8	41,9	115,4	Narpay	71,9	2,6	135,3
Kattaqo'rg'on sh.	53,7	1,9	96,9	Payariq	30,0	1,1	64,8
Oqdaryo	42,2	1,5	158,4	Pastdarg'om	77,3	2,8	98,3
Bulung'ur	58,5	2,1	114,5	Paxtachi	48,3	1,7	261,0
Jomboy	166,4	6,0	98,6	Samarqand	235,4	8,5	159,9
Ishtixon	58,9	2,1	104,0	Nurobod	34,6	1,2	102,9
Kattaqo'rg'on	76,8	2,8	125,3	Urgut	400,3	14,4	117,4
Qo'shrabot	13,2	0,5	363,8	Toyloq	249,8	9,0	228,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 39,0 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,8 % ni, Urgut tumani esa 9,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumani (359,4 %), Kattaqo'rg'on tumani (222,1 %) hamda Qo'shrabot tumanida (167,6 %) qayd etildi.


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-may oylarida)


















	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	687,0	39,0	116,8		67,7	3,8	175,9
Samarqand sh				Narpay			
	49,8	2,8	102,3		19,4	1,1	100,5
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	24,9	1,4	117,4		35,7	2,0	114,6
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	28,9	1,6	117,2		45,2	2,6	359,4
Bulung'ur				Paxtachi			
	82,1	4,7	109,2		225,9	12,8	109,9
Jomboy				Samarqand			
	40,8	2,3	101,3		31,3	1,8	126,9
Ishtixon				Nurobod			
	101,7	5,8	222,1		170,2	9,7	155,7
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	10,2	0,6	167,6		141,2	8,0	143,4
Qo'shrabot				Toyloq			


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-may oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 084,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 41,3 % ni tashkil etdi.


**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-may oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi %da			O'sishi %da		
	7 465,9			100,0			110,9		
ViLOYAT									
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	3478,7	46,6	108,5		200,6	2,7	100,8		
Samarqand sh.			Narpay						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	127,9	1,7	89,1		164,5	2,2	111,1		
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	159,9	2,1	113,4		243,6	3,3	108,4		
Oqdaryo			Pastdarg'om						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	105,9	1,4	108,0		159,3	2,1	127,7		
Bulung'ur			Paxtachi						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	714,6	9,6	91,4		576,6	7,7	115,4		
Jomboy			Samarqand						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	187,6	2,5	107,8		73,7	1,0	112,4		
Ishtixon			Nurobod						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	205,3	2,7	106,1		626,6	8,4	106,7		
Kattaqo'rg'on			Urgut						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	23,9	0,3	101,1		417,2	5,6	135,8		
Qo'shrabot			Toyloq						





Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-may oyiga nisbatan 135,8 %), Paxtachi (127,7 %), Samarqand (115,4 %), Oqdaryo (113,4 %) hamda Nurobod (112,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da





Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,6 % ni), hamda Jomboy (9,6 %), Urgut (8,4 %), Samarqand (7,7 %), Toyloq (5,6 %) va tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %) hamda Nurobod (1,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (6 290,6 ming so'm), Jomboy tumani (4 051,1 ming so'm), Toyloq tumani (2 029,3 ming so'm) va Samarqand tumani (2 244,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 887,7 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (178,6 ming so'm), Nurobod (481,4 ming so'm), Bulung'ur (557,7 ming so'm) va Payariq (644,7 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-may oylarida, ming so'm**



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari	
	1887,6		1164,5	
Viloyat				
	Sanoat mahsulotlari 6290,6	Iste'mol mahsulotlari 3421,3		Sanoat mahsulotlari 930,0
	Samarqand sh.			Iste'mol mahsulotlari 647,0
			Narpay	
	Sanoat mahsulotlari 1410,1	Iste'mol mahsulotlari 1141,2		Sanoat mahsulotlari 644,7
	Kattaqo'rg'on sh.			Iste'mol mahsulotlari 193,6
			Payariq	
	Sanoat mahsulotlari 987,3	Iste'mol mahsulotlari 414,0		Sanoat mahsulotlari 675,5
	Oqdaryo			Iste'mol mahsulotlari 313,2
			Pastdarg'om	
	Sanoat mahsulotlari 557,7	Iste'mol mahsulotlari 475,1		Sanoat mahsulotlari 1090,4
	Bulung'ur			Iste'mol mahsulotlari 639,7
			Paxtachi	
	Sanoat mahsulotlari 4051,1	Iste'mol mahsulotlari 1434,3		Sanoat mahsulotlari 2244,5
	Jomboy			Iste'mol mahsulotlari 1835,8
			Samarqand	
	Sanoat mahsulotlari 725,1	Iste'mol mahsulotlari 385,4		Sanoat mahsulotlari 481,4
	Ishtixon			Iste'mol mahsulotlari 430,6
			Nurobod	
	Sanoat mahsulotlari 740,6	Iste'mol mahsulotlari 644,2		Sanoat mahsulotlari 1203,8
	Kattaqo'rg'on			Iste'mol mahsulotlari 1096,1
			Urgut	
	Sanoat mahsulotlari 178,6	Iste'mol mahsulotlari 174,5		Sanoat mahsulotlari 2029,3
	Qo'shrabot			Iste'mol mahsulotlari 1920,6
			Toyloq	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-may oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 828,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur, Qoʻshrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqoʻrgʻon (82,3 %), Urgut (72,9 %) tumanlarida va Kattaqoʻrgʻon (61,2 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichik ulush Narpay (17,0 %), Ishtixon (19,0 %), Samarqand shahar (24,2 %) va Toyloq (34,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7 571 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 677 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 % ni) Samarqand shahriga, 1127 tasi (14,9 %) Urgut tumaniga, 705 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga, 680 tasi (9,0 %) Pastdarg'om tumaniga, 459 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga, 361 tasi (4,8 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 878 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 127 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,5 %) Urgut tumanida, 117 tasi (13,3 %) Samarqand shahrida, 85 tasi (9,7 %) Samarqand tumanida, 85 tasi (9,7 %) Pastdargo'm tumanida hamda 69 tasi (7,8 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 677 ta), Urgut (1127 ta), Samarqand (705 ta), Pastdarg'o'm (680 ta), Ishtixon (459 ta) va Jomboy (361 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shrabot (139 ta), Nurobod (164 ta), Narpay (202 ta), Paxtachi (212 ta), Bulung'ur (276 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (352 ta) shahrida qayd etildi.

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (66) 235-06-80